



**QIZIL CHIROG'IM
QANI?**

2-bet



OTA HOVLISI

7-bet



**BU KUNNI
ORZIQIB KUTDIK!**

9-bet

www.tongyulduzi.uz

TONG

Vatan yagonadir,
Vatan bittdir!

yulduzi

2010-yil
1-noyabr
N:44
(66793)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN - 2010-6092

**O'G'IL-QIZNING KOMILI —
TARAQQIYOT OMILI**



Zuhra MUHSIMOVA olgan surat

Poytaxtimizning Chilonzor tumanidagi
128-maktab ona tili va adabiyot fani
o'qituvchisi Munira opa Tolibova
o'quvchilar bilan Vatan
mazzusida suhbatlashmoqda.

6-bet

QIZIL CHIROG'IM QANI?



Maktabga ketayotgan ota-bola suhbatlashib borishar, ularning qiziq bir gapi xayolimni tortdi:

– Botirjon, o'g'lim, – dedi ota, – qizil chirog'ingni unutib qo'yma, xo'pmi?

Bola jilmaydi va:

– Hech kim bilan janjallashmayman, xavotir olmang, dadajon! – dedi.

Sezdimki, ota o'g'liga tanbeh beryapti. Lekin nega qizil chiroq? Balki bolaning ongiga kuchli ta'sir etish uchun shu gap kerak bo'lgandir. Ammo nima bo'lganda ham, hammaning o'z qizil chirog'i bo'lishi lozim.

Biz maqtanib yurish uchun emas, to'g'ri yashamoq uchun pul topamiz, kiyinamiz, obro' topishga intilamiz. Chegaradan chiqib ketmaslik uchun o'zimizning qizil chirog'imizga amal qilamiz.

Bolalar, qizil chirog'i bo'lma-gan kishi egri yo'lga ham o'tib ketishi mumkinmi? Mumkin!

Agar tariximiz zarvaraq-larini sinchiklab ko'rsak, ota-bobolarimiz bu borada o'n ikki hikmatga amal qilishni tavsiya etganlar:

Suvga tupurma!

Nonni uvol qilma!

Bir bolaga yetti mahalla ota-ona!

Uyda hushtak chalma!

Bo'sh beshikni tebratma!

Ota o'tirgan uyning tomiga chiqma!

Beshikdan qabrgacha ilm izla!
Vatanni sevmoq imondandir!
Kattaga hurmatda, kichikka izzatda bo'!

Bosh kiyinni tepma!
Marhumning uyidan chiqib, birovnikiga borma!

Qushning uyasini buzma!
Ana shu hikmatlarga amal qilish asnosida milliy qadriyatlarimizni, tilimizni, e'tiqodimizni saqlab kelyapmiz.


Marg'ilonlik otaxonlardan biri shunday dedi: «Har odamning yomonlikdardan to'xtatib qoladigan qizil chirog'i bo'lishi kerak. Bir kishining o'g'li hafsalasiz, bedavo ekan.

Uni hech bir ishdan to'xtatib bo'lmas ekan. Voyaga yetgach, harchand urinmasin, biror joyda qo'nim topib, biror ishning boshini tutolmay xunob bo'libdi. Bir ustozning oldiga borib, dardini aytgan ekan, u kishi: «Yoshligingda qizil chiroq olmagan ekansan!» debdi hazillashib.

Nodon yigit: «Qani mani qizil chirog'im!» deya ayyuhannos solgan ekan.

Hayotda aqlli degan nom olish uchun bu bolaning ahvoriga tushmaslik yo'llarini izlash o'z qo'lingizda. Qizil chiroqqa qarang, u hatto yo'lda ham sizni xavf-xatardan asrab turadi. Nima deysiz? Qizil chirog'ingiz bo'lishi kerakmi, yo'qmi? Xatlar-ingizni kutamiz.

O'z muxbirimiz



MALOHATMI, SABOHAT?!

Tahririyatimizga bir xat keldi. Yaxshisi, bu xatni sizlar bilan birgalikda o'qiy qolaylik:

– Men besh yildan buyon «Tong yulduzi» gazetasiga obuna bo'lib kelaman. Yaqinda 2011-yil uchun ham obuna bo'lishga ulgurdim. Kitob o'qishni yaxshi ko'raman. Ayni kunlarda Olimjon Hayitning «Tiriklayin ko'milgan yigit», Xudoyberdi

To'xtaboyevning «Sariq devni minib» kitobini o'qib chiqdim. Qahramonim Hoshimjon bilan sehrli olamga sayohat qildim.

Yana Tursunoy Sodiqova, Marhabo Karimova va Zoir Ziyoning kitoblari ham mening ajralmas do'stlarimdir...

Aziz o'quvchilar, bizga mak-tub yozayotganingizda, manzilingiz, ism- sharifingizni aniq ko'rsating. Yozgan maqolangizni qayta o'qib, imlo xatolariga ham

katta e'tibor bering. Biz ham uni qiynalmasdan o'qiylik. Mana, tengdoshingizning xatini sahi-famizga tayyorlayotganimizda, konvert ustiga Malohat, xat ichidagi yozuvda esa Sabohat deb yozilibdi.

Xullas, xatni kim yozganini aniqlay olmadik.

Uning manzili: Qoraqalpog'iston Respublikasi, Beruniy tumani, 38-unumiy o'rta ta'lim maktabining 9-«A» sinf o'quvchisi Malohat Sa'dullayeva ekan.



MAMNUNMAN

«Barkamol avlod yili»da maktabimizda ko'plab yangiliklar bo'lyapti. Jumladan, sport anjomlari yangilandi, har bir fan uchun alohida xonalar, turli yo'nalishlar bo'yicha to'garaklar tashkil etildi. Ayniqsa, faol, a'lochi va namunali o'quvchilarning maktab stipendiyasi bilan rag'batlantirilishi bizni yanada ruhlantirdi.

Men ana shunday maskanda ta'lim-tarbiya olayotganimdan mamnunman.

Shalola JUMAYEVA,
Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi
63-ixtisoslashtirilgan maktab-internatning
6-«A» sinf o'quvchisi

Ajdodlar merosini o'rganamiz

Har kimki chuchuk so'z elga izhor aylar,
Har nechaki ag'yordur, yor aylar.

Bolalar, Hazrat Alisher Navoiy bobongiz elga hamisha mehribon bo'lgan: yiqilganlarni suyagan, beva-bechoralarni qo'llagan, odamlar uchun bir qancha turar joylar – hovuzlar, hammomlar, ko'priklar qurib bergan. Bu ham tilning shirinligidan. Siz ham elga mehribon bo'lsangiz, hatto g'animlar ham sizga do'stlik ko'zi bilan qaray boshlaydilar. Shirin til bilan juda katta baxtga erishish mumkin.

QO'SHNI AYOLLAR MAQTASHADI

Bugungi bolalar nimalar haqida o'ylashadi? Ana shu savolga javob topish uchun bir necha o'smirlar bilan suhbatlashdik:

Olimjon, 13 yosh:

– Men ilgari kitob o'qimasdim, bir varaq o'qisam, ko'zimni uyqu bosadi. Pirimqul Qodirovning «Bobur» romani qo'limga tushdi-yu, kitobni qo'lmdan qo'yam o'qidim. Hayotimda tubdan uzgarish bo'ldi. Shu kungacha o'nta badiiy asar o'qib chiqdim. Ilgari behuda o'tkazgan vaqtim uchun juda achinayapman.

Sharifjon, 9 yosh:

– Ustozim tavsiyasi bilan uyda ukalarimga bir soat dars o'tdim. Ancha toliqdim, qiynaldim. Va ustozlarga oson emasligini angladim. Endi men muallimlarimning mehnatini qadrlashga harakat qilyapman.

– Kelajakda kim bo'lmoqchisiz?

– Muhandis.

– Nima ixtiro qilishni xohlaysiz?

– Zo'r mashinalar ixtiro qilishni xohlayman.

Ilhom, 8 yosh:

– «O'zbekiston – mening jonajon Vatanim» mavzida yozgan inshom o'qituvchimga yoqdi. Men Vatanimni sevaman. Shu tuyg'u tufayli maqtov eshitganimdan xursandman.

Ra'no, 7 yosh:

– Zulfiyaxonim mukofotiga sazovor bo'lgan opalarimga havas qilaman. Notiqlikni, bir necha tillarni o'rganayapman. Bu hali kam, deymen o'zimga-o'zim.

Sojida, 6 yosh:

– Har kuni erta turib, ostonani supurib qo'yaman. Qo'shni ayollar meni maqtashadi. Ozodalikni yaxshi ko'raman.

– Baholar qanaqa?

– Yaxshi!

– Qanaqa kitob o'qidingiz?

– O'zbek xalq ertaklarini. Zumrad yoqdi, Qimmatga o'xshashni xohlamayman.

ESLATMA: Siz ham do'stlaringiz haqida yozib yuboring.



TEKIN TAOM

Yalqov, tanbal Sichqonvoy,
Tunda turib o'rnidan.
O'ng-so'liga bir qarab,
Asta chiqdi inidan.
Oshxonada xontaxta,
Ustida turardi non.
Ishtaha karnay chalib,
Chopib qoldi-ku Sichqon.
Kulchadan katta bo'lak,
U chaqqon tishlab oldi.
Egasi quvlab qolgach,
Noni tiqilib qoldi.
Shunda bir haqiqatni,
Angladi: xullas kalom,
Mehnatsiz rohat bo'lmas,
Tatimas tekin taom.

Malika ILHOMJONOVA,
poytaxtdagi 116-maktabning
6-«A» sinf o'quvchisi



Men Vatanni mittigina Yuraginga joylab oldim

SENI TENGSIZ DIYOR DERLAR

Dunyolardan bittagina
Marvaridni saylab oldim.
Men Vatanni mittigina
Yuraginga joylab oldim.

Vatan, kurtak ochgan o'zing
Yetmish ikki tomirimd.
Zuvalamni qorgan o'zing,
Yelkadoshsan oxirimda.

Bir kaft tuproq har yerda bor,
Lek men uchun tanhodirsan.
Bobolarim aytganidek:
«Sen haqiqat, ro'yodirsan!»

Haq yo'liga oyna tutgan,
O'ldi senda Alisherlar.
Ulug'larni ulug'lagan
Seni tengsiz diyordlar.

Taqdiringga ming shukrona,
Tangri seni azal suygan.
Haq oldida bandasi ne,
O'zi buyuk qilib qo'rgan.



DALALAR

Daladagi daraxtlar
Bargin to'kib bo'libdi.
Eh, osmonni qaranglar,
Bulutlarga to'libdi.

Siz polizga bir boqing,
Taruvi yotar yonboshlab.
Oqnovvot navbat kutib
Rosa xurrakni otar.

Bulutlar orasidan,
Quyosh mo'ralab boqar.
Uning orombaxsh tafti,
Dillarga chunon yoqar.

Nafosat HAMIDOVA,
Navoiy viloyati,
Xatirchi agroservis
kolleji o'quvchisi

OQ LOLA



Bu tushmi yo xayolmi,
Yastanib yotar dala.
Oppoq qorda ochilib,
Turar emish oq lola.

Tovlanarmish barglari
Shamollarga burib yuz.
Oppoq qorda umidim
Turgan xayol – oppoq iz.


Oppoq zamin, oppoq qor
Mamnunmikan ishimdan.
Uni asta bahorga –
Olib qo'ydim tushimdan.

**Mahliyo
EGAMSHUKUROVA,**
Toshkent
shahridagi
24-maktabning
8-sinf o'quvchisi

GLOBALLASHUV NIMA?

- Hozir qandayin zamon?
- Tafakkurlar zamoni.
- Qay bir davr hukmron?
- Axborotlashuv oni.
- Hozir qay asr ekan?
- Texnologiya asri.
- Olam aro qad rostlar,
- Globallashuv qasri.
- Globallashuv? Xo'p qiziq.
- Nima ekan asli u?
- Ko'p eshitdik atamani
- Bor narsamni o'zi bu?

Globallashuv – jarayon,
Tezkor taraqqiyotdir.
Bo'lmang siz bunga hayron,
Bu yashindek hayotdir!
Unda hukmrondir vaqt,
Hech qachon u to'xtamas.
Industriya zamoni
Hayotni cheitlab o'tmas.
Integratsiya bilan
Bog'landi mamlakatlar,
Investitsiya bilan
Tizimli hamkorliklar.



Axborot texnologiyalari
Ilm-fan yutuqlari.
Kommunikatsiya asli
Globallik dalillari.
Yana ildamroq yuring,
Qarshimizda koinot.
Bunchalar tez sur'atda
Jadallashdi bu hayot?!
Shudir chin taraqqiyot
Zinhor to'xtamasdir u.
Har soha va iqtisod,
Kashfiyotlarga urg'u!
Endi bir chuqur o'ylang:
Yuksakdir bu jarayon,

Lekin yo'qmikin unda
Zarracha qora isyon?!
Yot g'oya ta'sirida
Og'ib ketmang so'l tomon.
Ogoh bo'ling, Odamzod,
Mafkura – ulkan ummon!
To'g'ri maqsad yuksalish,
Marrasi – taraqqiyot!
So'l oqim esa so'nish,
Kelajak unda barbod.
Ertangi kunimizga
Hech tushmasin soyalar.
Ma'rifat ko'chatidan,
Unsin teran g'oyalar!

Anora YO'LDOSHEVA

Tarjimada g'azal vazni saqlangan, faqat Navoiy baytlaridagi o'ta cho'ziq «sham», «ishq» kabi so'zlar barmoq vazniga xos o'lchovda olingani maqbul emas.

Muxammas haqida gap ketganda, shuni ham ta'kidlash lozimki, har qanday g'azalga ham taxmis bog'lab bo'lavermaydi. Zero, bu janrning o'z qonun-qoidalari, estetik talablari mavjud. Masalan, orttirilgan misralar har jihatdan g'azal baytlariga munosib bo'lishi lozim: qofiyasi siyqa yoki saktali bo'lmasligi, vaznining to'g'riligi, asil baytda qo'llangan badiiy san'atlarga javob aytilishi va eng muhimi, ular mazmunan g'azal bilan uzviy bog'lanib ketishi, she'rning umumiy ruhini boyitishga xizmat qilishi lozim. Xususan, hozirgi zamon she'riyatida qo'llaniladigan tonik qofiya g'azalning husnini buzadi. (Masalan, yuqoridagi misolda «tirik», «firix» va «zirih» so'zlari barmoq vaznida yaxshi qofiya, ammo aruz nuqtayi nazaridan qofiyadosh emas). Muxammasga barmoq vazni aralashsa, nazmni oqsoq qilib qo'yadi, badiiyatdan xoli, so'niq va jo'n misralar esa «atlas ko'ylakka bo'z yamoq» deganlariday she'rning go'zalligiga putur yetkazadi.

Taxmis bog'lashga jazm qilgan shoir o'zini Navoiyning huzurida deb hisoblashi, Hazrat nazarini his etib turishi kerak. Bunday istihola, ayniqsa, Navoiy taxallusi qatoriga o'z taxallusini qo'yayotganda juda

ham zarur.

Umuman, g'azal she'r san'atiga boy, mazmunan tugal bo'lsa, uni muxammas darajasiga yetkazish oson emas. Navoiy ham muxammas janriga juda kam murojaat qilgan – «Xazoyin ul-ma'oni» tarkibidagi har bir devonda 650 tadan g'azal bo'lgani holda, atigi 3-4 tadan muxammas bor, xolos. Aruz haqida mukammal risola yozgan Bobur ijodida esa, muxammas deyarli uchramaydi. Buni shoirning qo'lidan kelmaganidan emas, balki muxammasga qo'yiladigan talab tufayli, deb tushunish kerak.

Abdulla A'ZAMOV

ARUZ BAHSI

Shu o'rinda ta'kidlaymizki, yuqoridagi mulohazalardan maqsad – aslo zamondosh shoirlarni mumtoz adabiyotimiz namunalariga taxmis bog'lashdan sovitish emas. Muddao – intilish natijasi imkon boricha «tilla uzukka ko'zdek» yarashadigan bo'lsin, o'qiganda muallifga «ofarin» deging kelsin. Shunda muxammaslar aruzni o'rganishga, targ'ib qilishga, alal-oqibat Navoiyni tushunishga hissa bo'ladi.

– **Taxmis bog'lash san'atiga namuna keltirilsa, yaxshi bo'lar edi.**

– Mumtoz adabiyotda bunday namunalar ko'p.


Ogahiy, Muqimiy kabi shoirlar muxammas janrida ham barakali ijod qilganlar. Bu yerda ibratli bir misolni batafsilroq tahlil etaylik.

Navoiyning:

**Bir pari paykar g'ami oshuftahol etmish meni,
Elga ahvolim demakdin gungu lol etmish meni,**
matlasi bilan boshlanadigan g'azaliga bitilgan muxammas mashhur – u Hoji Abdulaziz Abdurusulovning «Gul'uzorim» qo'shig'iga asos qilib olingan. Keyinroq bu qo'shiqni boshqa mashhur hofizlar, ayniqsa, Rasul qori Mamadaliyev maromiga yetkazib kuylagan.

Qo'shiqda muxammas uch yoki to'rt band miqdorida ijro etiladi. G'azal asli yetti bayt, shundan necha baytiga taxmis bog'langanini ham, taxmis mallifi kim ekanligini ham aniqlay olmadik. U Hoji Abdulazizdan oldinroq yashagan yoki unga zamondosh shoirlardan biri bo'lsa kerak. Maqomshunos O.Matyoqubov fikricha, muallif atloqli hofizning o'zi bo'lib chiqishi ham istisno emas. (Qo'shiqda har baytdan so'ng «Ey gul'uzorim, rahm ayla, nigorim; rahm ayla, nigorim, bergil murodim, qo'yma meni zor yig'latib, nigorim» so'zlari naqorat qilib olingani ham shundan dalolat beradi. Bu qo'shiq aslida diniy mazmunda bo'lgani, keyinchalik sho'ro mafkurasini talabi bilan, ayrim so'zlarni o'zgartirishga to'g'ri kelgani haqida mulohazalar ham yo'q emas).

(Davomi bor)



Aytaylik, katta ekran orqali bir filmni maroq bilan tomosha qilyapsiz. To'satdan ekraningiz yorishib chaqqoq chaqqandek bo'ldi-yu, qarshingizda bundan 150 yil avval yashagan sehrgarning siymosi gavdalandi. Xayolan uzoq o'tmishga sayohatga otlandingiz. Lekin yaxshilab e'tibor bersangiz, bir yarim asr ilgari yashagan sehrgarning egnida zamonaviy kiyimlar – jinsi shin, futbolka, oyog'ida esa krossovka...

BOLALAR FILMLARI TANLOVI

Bu juda jiddiy kamchilik, shunday emasmi? Agar bu filmni tajribali rejissor emas, sizning tengdoshlaringiz suratga olgan bo'lsa-chi, unda kechirsa bo'ladi-a? Chunki ularda hali tajriba yetishmasligi tabiiy holdir. Quvonarli jihati shundaki, ularning yosh qalbida bu kasbga mehr, havas uyg'ongan. Bu havasni esa o'z vaqtida payqab, to'g'ri yo'naltirish lozim. Shu orqali yosh avlod qalbida o'zbek milliy kinosan'atiga mehr uyg'otiladi, kino sohasi rivojiga munosib hissa qo'shiladi.

Ana shunday ezgu maqsadlarda kuni kecha Respublika «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi binosida o'quvchi-yoshlar o'rtasidagi «Sehriy yog'du» respublika kinohavaskor bolalar festivali yakuni munosabati bilan katta tadbir bo'lib o'tdi.

Ikki kun davom etgan festival kunlarida o'quvchilar poytaxtimizning

diqqatga sazovor joylariga sayohat qilib, yangi do'stlar orttirdilar.

– Men kino sohasiga 10 yoshimdan buyon qiziqaman, – deydi Jizzax viloyati, Zomin tumanidagi 60-o'rta maktab o'quvchisi Gulnora Anorbo'yeva. – Uch yildirki, tuman O'quvchilar texnik ijodiyoti markazi qoshidagi «Yosh kinohavaskorlar» to'garagiga qatnab, to'garak rahbarimiz Gulbahor Abdulhakimovadan bu kasbning sir-asrorlarini o'rganib kelyapman. Mazkur kinofestivalda «Mehr nurim – ustozim!» nomli filmim bilan ishtirok etyapman.

Shuningdek, «Kelajak ovozi» ko'rik-tanlovida ham muvaffaqiyatli qatnashdim. «Zulfiyaxonim qizlari» tanlovining madaniyat yo'nalishi bo'yicha tuman bosqichi g'olibasiman...

Gulnoraning so'zlarini tinglar ekanmiz, uning yonidagi yelkasiga fotoapparat osib olgan bir yigitcha diqqatimizni tortdi. Xorazm viloyati, Urganch politexnika va kompyuter

texnologiyalari kasb-hunar kolleji o'quvchisi Muhammad Bobojonov ham yetti yildan buyon Urganch tuman O'quvchilar ijodiyoti markazi qoshidagi «Yoshlar studiyasi» to'garagiga qatnashib kelayotgan ekan. U festivalda «Mening shahrim», «Xiva», «Oromgohda bir kun», «Suv – hayot manbai» nomli filmlari bilan qatnashib, 1-o'rinni qo'lga kiritdi.

Qashqadaryolik Elbek Inoyatov, namanganlik Naima Sobirovaning filmlari ham 1-o'ringa loyiq topildi.

Shuningdek, Surxondaryo viloyati, Sherobod tumanidagi 49-maktabning 9-sinf o'quvchisi Xurshid Bo'riyev, Jizzax viloyati, Jizzax shahridagi 16-maktabning 8-sinf o'quvchisi Ahror Abilov, Samarqand viloyati, Samarqand tumanidagi 34-maktabning 8-sinf o'quvchisi Tohir Hamdamovlar turli yo'nalishlar bo'yicha Gran Pri sohibi bo'lishdi.

Feruza ABDUSAMAD qizi



Z.MUHSIMOVA olgan suratlar

KICHKINTOYLAR



hamon bir yoqlamalik bilan yondoshish hollari kuzatilyapti. Boshlang'ich

Malikning «Alvido, bolalik!» kabi talay asarlari bolalarning sevimli asarlaridandir. Qaniydi ana shunday ijodkorlarimiz bolalar tabiatiga mos yangi-yangi asarlar, ertaklar yozib berishsa-yu, ularni darsliklarga kiritsak. Zero, ertaklar yaxshilikka yetaklaydi, hayotni bo'yab-

ERTAK

Ruknimizni o'qib, uchrashuvning bugungi mehmoni kimligini bilishga sabringiz chidamayotgandir?!

O'QISHSIN



Tanishig: Safo MATJON, Nizomiy nomidagi TDPU professori, pedagogika fanlari doktori.

Ustoz bilan bo'lgan maroqli suhbatimiz mavzusi o'z-o'zidan bolalar adabiyotiga, darsliklarga borib taqaldi. Safo akaning bugungi bolalar adabiyoti xususidagi fikrlari bilan qiziqdik:

– Bizga ma'lumki, sobiq sho'rolar davrida, adabiyot mafkura bilan chambarchas bog'liq, bolalar adabiyoti tarbiyaga xizmat qilishi kerak, degan fikrlar ilgari surilardi. O'sha davrdagi shoir va yozuvchilarimiz ijodiga nazar tashlasak, asarlarning tarbiyaviy ahamiyatiga ko'proq urg'u berilganiga guvoh bo'lamiz. Quddus Muhammadning «Cho'pon bobo qo'shig'i», «Bog'larda bahor» kabi to'plamlariga kirgan «O'quvchiga esdalik», «Dunyoda eng kuchli nima?», «Erkinjonning sovg'asi», «Tolim gullaydi-yu, nega meva tugmaydi?» kabi talay she'rlari, Hakim Nazirning «Yonar daryo», «Kenjatoy», «Shoira», «So'nmas chaqmoqlar» kabi qissa va hikoyalari fikrimizning dalili bo'la oladi.

Sevimli shoirimiz G'afur G'ulom «Shum bola» qissasi bilan bolalar nasrining yuksak pog'onalariga ko'tarilishiga ulkan hissa qo'shgan, lekin «Tirilgan murda» kabi asarlarida o'sha davr talab qilgan tarbiyaga ko'proq e'tibor qaratgan.

Adabiyot mafkura bilan chambarchas bog'liq, desak xato qilib qo'yishimiz mumkin. Lekin ularni ajratish ham to'g'ri bo'lmaydi. Endilikda bolalar adabiyotini mafkura bilan bog'lashdan asta-sekin qutilyapmiz. Lekin ayrim yozuvchilarimiz ijodida qahramonlarga

sinf o'quvchilari uchun darsliklar tayyorlash jarayonida ko'plab shoir va yozuvchilarimiz ijodiga murojaat qilamiz. Shu asnoda bugungi kunda bolalar she'riyati yaxshi o'zanga tushib olgan, nazmda yaxshi-yaxshi asarlar yaratilyapti, desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu borada Tursunboy Adashboyev, Abdurahmon Akbar, Dilshod Rajab, Qo'zi Ismoil, Rustam Nazar kabi shoirlarimiz ijodini alohida e'tirof etishni istardim.

Adabiyot taraqqiyotini adabiy ta'sir, adabiy aloqalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ba'zan bir adabiyotdagi umuminsoniy qadriyatlarga doir syujetlar boshqa adabiyotlarda ham uchirashi mumkin. Adabiyotda bunga sayyor syujetlar ham deyiladi.

Hazrat Navoiy ijodidagi «Yolg'onchi cho'pon» syujeti asosida keyinchalik Uyg'un «Yolg'onchi cho'pon» ertagini yozgan. Sulton Jo'raning «Tinish belgilarning majlisi» asari mavzusi ingliz va rus adabiyotlarida ham borligi ma'lum. Tursunboy Adashboyev o'z tarjimalarida rus bolalar shoirlari K. Chukovskiy, S.Marshak ijodiy uslubidan nimadir olgan...

Mirmuhsin, Asqad Muxtor, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, O'tkir Hoshimov, Tohir Malik kabi taniqli adiblar ijodiga nazar tashlasak, bolalar uchun ham yaxshi-yaxshi asarlar yaratishganiga guvoh bo'lamiz. Masalan, A.Muxtorning «Sut achib qoladi», Mirmuhsinning «Dyambo», E. Vohidovning «Mevalar suhbat», Tohir

bezamay, borligicha ko'rsatadi. Shu ma'noda quyi sinf darsliklariga ko'proq ertaklar kiritishga harakat qilamiz.

Bolajonlar ertak tinglashni juda yoqtirishadi. Sir emaski, tezkor zamonamizda nafaqat ota-onalar, balki buva va buvilarimiz ham ularga ertak aytib berish uchun har doim ham fursat topa olishmayapti. Bola otanasidan ololmaganini kitoblardan olsin.

– *Domla, tarixi uzoq o'tmishga taqaladigan ijod ahli orasidagi «ustoz-shogird» an'analariga bugungi kunda qog'ozbozlik uchungina yondashilayotgandek, nazarimda.*

– Juda o'rinni savol berdingiz. So'z mulkingning sultoni mir Alisher Navoiyning bir emas, yuzlab shogirdlari bo'lgan. Bu xayrli an'anani bugungi kunda ham davom ettirayotgan ijodkorlar sirasiga Tursunboy Adashboyevni kiritishimiz mumkin. Qayerda bo'lmasin, shogirdlarini papalab yuradi. Afsuski, Xudoyberdi To'xtaboyevdek benazir yozuvchimizning shogirdlari nazarimda kamroqdek...

Ustoz bilan bo'lgan maroqli suhbatimizdan o'zimizga tegishli xulosalar chiqarib oldik. Bu fikrlar taniqli shoir va yozuvchilarimizni, bolalar adiblarini ham befarq goldirmaydi, degan umidda ulardan yangi-yangi asarlar, ertaklar kutib qolamiz.

F.JALILOVA yozib oldi

OLAM ARO YAGONASAN, O'ZBEKISTON!

Chilonzor tumanidagi 128-maktabga kirib borganimizda, bizni ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi Munira opa Tolibova iliq kutib oldilar va bayramona bezatilgan faollar zaliga boshladilar.

«Olam aro yagonasan, O'zbekiston!» deb nomlangan kechada 8-«A», «B» hamda 9-«B», «V» sinf o'quvchilari faol ishtirok etishdi. «Suxandonlar», «Yosh notiqalar», «Vatanparvarlar», «Tilshunolar» guruhlariga bo'linib, yil davomida olgan bilimlarini yana bir bor sinovdan o'tkazishdi.

– Bolajonlarim, o'z tilingiz-

ga doimo hurmat va e'tibor bilan qarang. So'zlashish odobiga amal qilsangiz, tilimiz go'zallashib boraveradi, – dedi mahalla faoli Ma'mura aya Musharipova.

VATAN HAQIDA QO'SHIQ

Bugungi kechada «Vatanparvar» guruhi safida ishtirok etdim va «Yosh vatanparvar» nominatsiyasida g'olib bo'ldim. Kelgusida yurtimning sadoqatli farzandi bo'lishga harakat qilaman.

Qamariddin AHMEDOV,
9-«B» sinf o'quvchisi

RAHMAT DEYMIZ

«Suxandonlar» guruhida sinfimiz sharafini himoya qildik. Tadbir bahona ko'plab adabiyotlarga murojaat qilib, mustaqil Vatanimiz, ona tilimiz haqida yanada ko'proq bilimga ega bo'ldik. Buning uchun ustozlarimizga, ayniqsa, ona tili va adabiyot fani o'qituvchimiz Munira opa Tolibovaga katta rahmat deymiz.

Bobur SHOKIROV,
Iroda HUSNIDDINOVA,
8-«A» sinf o'quvchilari



8-«B» sinf o'quvchilari Bunyod AKIYEV, Otabek QO'SHBOQOV, Jamshid ABBOSOV kelgusida harbiy bo'lish uchun hozirdanoq harakatni boshlab yuborishgan.



Olovuddin ORIPOV olgan suratlar

Kaftga olib yugurganman tuprog'ingni,
Ona zamin, senga oshiq bo'lgan kunim...
AXTAMQULI

Bobom hozir nafaqadalar. Ularga juda havasim keladi. Chunki bobom men kabi erta turib maktabga, darsdan so'ng sport mashg'ulotlariga, qo'shimcha saboq olish uchun til markazlariga shoshmaydilar.

– Bobojon, sizga mazza-a, bo'sh vaqtingiz mo'l, – desam:

– Yillar o'tib, sen ham mendek bobo bo'lasan, – deydi.

Shunda o'yab qoldim. Men ham bobo bo'lsam, nabiralaringma bobomdek Vatan haqida hikoyalar aytib bera olamanmi?!

Keling, bobomning bolalik xotiralari, hamon sog'inch bilan yashayotgan ko'ngli bilan sizni ham tanishtiram:

Oftobi charaqlab turgan kuz kunlarining birida dadam bobom ikkimizni olib vodiya otlandilar.

– Sizlarni bir aylantirib kelay, – dedilar. Biz yo'lga tushdik. Farg'onaning Rishton tumanidagi To'da qishlog'iga yetib borgunimizcha, ikki tarafi baland tog'lar bilan o'ralgan yo'llardan yurdik. Dadam, dovon yo'li shu bo'ladi, deya menga tanishtirdilar. Dovondan tushsak, Farg'onaga yaqinlashamiz, dedilar bobom bir xo'rsinib. Mashinamiz tog' yo'lida yeldek uchib borardi. Yer osti yo'lidan o'tar ekanmiz, hayratim yanada oshganini sezgan bobom:

– Otam bu yo'llardan yurmadilar, onam uyini sog'inib, olamdan o'tdilar, – dedilar ko'z yoshlarini artib. Dadam ham, men ham bu gaplarni go'yoki eshitmadik. Chunki bobomning dilida qolgan armonli sog'inchni hech qanday tasalli bilan to'ldira olmasdik... Nihoyat, To'da qishlog'iga yetib keldik.



OTA HOVLISI

– Bu mening tug'ilgan uyim, – deya bir uyning eshigini qoqdilar bobom. Uydan nuroniy onaxon chiqdi. Bizni tanimadi. Bobom: – Men shu uyda tug'ilgandim, ruqsat bersangiz, ota-onam ruhlariga bir tilovat qilib ketsam, – dedilar haligi ayolga yalingannamo ohanda. Onaxon bobomning ko'zlaridan oqayotgan yoshni ko'rib, bizni darrov ichkariga taklif qildilar. Mening ham shu tobda negadir ko'zlarimdan yosh duvillab oqardi. Chin so'z ekan bobom hikmatlaridagi «Yer senga onadek rost gapiradi», deganlari.

Bobom hovlidan bir siqim tuproq olib, nimalardir deb pichirladilar. So'ng, uylarga qarab:

– Bizning uyimizdan faqat birgina shu otxona qolibdi. Agar ko'nglingizga kelmasa, shu joyga ham bir kirib chiqsam, – deb yana xijolat bo'lib so'radilar. Otxona devorlarini xuddi bizni erkalagandek siladilar, nimalardir

deb devorga qarab gapirdilar. Keyin bir qop oltin topgandek xursand holda menga qarab:

– Otam otxona qurayotganlarida, men sendek bola edim, mana bu zuvala kesaklarni tomga men va akam otib bergandik. Biz hasharchilar uchun onam o'choqda osh pishirgandilar, – dedilar-da, ho'ngrab yig'lab yubordilar.

– Bobojon, – deya o'zinni bag'rilarga otdim. Dadam esa bobomning toblari qochib qolmasin deya ulami qo'tliqlab oldilar. Negadir uy egasi ham, uning atrofida turgan nabiralari ham, dadam ham tinmay yig'lardik. Ammo men nimaga yig'layotganimizni bilmasdim, bilganim – bobomga rahim kelgani, hamon ota-onasining mehrini, izlarini unuta olmayotganligini ich-ichimdan his qilardim, xolos...

O'sha kunning o'zidayoq biz Toshkentga qaytdik.

Ko'zlarimni yumib boryapman-u, xayolimdan bir o'y kechadi: qaniydi o'sha hovlida bobomning ota-onasi bo'lsa-yu, bizni bir kecha mehmon qilishsa. Bobom bolaligi o'tgan shu hovliga meni tez-tez olib kelsa...

Uyga yetib kelgach, negadir charchoq azobi meni qiynamadi, aksincha, adabiyot muallimimiz topshirig'iga binoan «Vatanni sevish qachondan boshlanadi?» mavzuida insho yozishga kirishdim.

Ertasi kuni inshoimni sinfdoshlarim, hatto ustozim ham ko'zda yosh bilan tinglashdi. Demak, men Vatanni sevishni, tug'ilgan yurtni ardoqlashni, unga bo'lgan sadoqatni va mehrni faqat bobojonimdan o'rganibman. Siz-chi, tengdoshim, Vatanni sevishni qachon va kimdan o'rgandingiz?

12 yoshli Shohjahon NISHONOV
hikoyasini Ma'mura
MADRAHIMOVA yozib oldi



Bolalarning sevimli shoiri Dilshod RAJAB Buxoro viloyati, Shofirkon tumanida tug'ilgan. Nizomiy nomidagi TDPU filologiya fakultetini tugatgan. Filologiya fanlari nomzodi. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi. «Otamning bog'i», «Daryo ko'ngil», «Jilvon o'g'loni», «Alifbo», «Sanoq», «Sukut sarhadi», «Poyezdning bolasi» kabi o'nlab she'riy va nasriy kitoblar muallifi. Ayni paytda O'zbekiston Respublikasi Favqulotda vaziyatlar vazirligi «Muhofaza +» jurnali, «Vaziyat» gazetasi birlashgan tahririyatida Bosh muharrir o'rinbosari bo'lib ishlaydi.

Quyida shoir she'rlaridan namunalari o'qiysiz.

O'ZBEKISTON

*Ne-ne ta'rif-tashbeh bitdilar,
Mangu ilhom, mangu imkonsan.
Ikki daryo oralig'ida
Jo'shib yotgan ulkan ummonsan.*

*Bag'ringni dur-marvarid kabi
Ezguliklar etmishdir maskan.
Yomonlig-u yovlar yo'liga
Ikki daryo ko'ndalang har dam.*

*Boqib bag'rim to'lur ziyoga,
Sen – ko'zimning oq-qoraligi.
Alishmasman ikki dunyoga
Ikki daryo oralig'ini!*

YIL ISTAGI

*Bu yurt ertasidan xabar —
Ko'kda zarrin hilol bo'lgay.
Yana yashnar dala-dashtlar,
Havo sof, suv zilol bo'lgay.*

*Nazar qilgan aziz, yer bu,
Mudom tinchlik g'amin yer u.
Kam emas, kamtarin el bu,
Ki kamtarga kamol bo'lgay.*

*To'kib ter, tinmagay joni,
Osmonga ustun xirmoni.
Ochiq qo'li, dasturxonni,
Butun noni halol bo'lgay.*

*Yuksalur kuch olib kunda,
Oydayin balqar ochunda.
Bobolar barhayot bunda,
Bolalar barkamol bo'lgay!*

BUG'DOYNING TAQDIRI

*Maysa edi ona oftoib
Boshidan nur to'kardi.
Yuvar edi yomg'irlar goh,
Yellar silab o'tardi.*

*O'sib kamol topdi durkun,
Rosa pishib yetildi.
Sinovlardan o'tkazmoq-chun
Bir kun olib ketildi.*

*Avval, avval bilmoq lozim
Chidam-u bardoshini.
Yuritdilar boshidan zil
Tegirmonning toshini.*

*Endi uning pokligin ham
Bir tekshirmoq kerak-da.
Mayin, oppoq un bo'lsa-da,
O'tkazdilar elakdan.*


*Suv quydilar, mushtladilar,
Ming bir kuyga soldilar.
Qizib turgan tandirga ham
Bir kiritib oldilar.*

*Non bo'lgach u sabr qilib
Bor sinov-otashlarga.
E'zoz qilib, ko'zga surib,
Ko'tardilar boshlarga.*



BO'SAG'A

(Boshi o'tgan soslarda)



4. BU YOG'IGA TAVAKKAL QILDIM

Nonushtadan keyin maqsadimizni payqagan Eshnazar aka qo'limizdan xalta-xurjanni tortib oldi-da, e'tiroz uchun zig'ircha o'rin qoldirmay cho'rt kesdi: uyimiz ehtimol tordir, lekin fe'limiz keng.

Tez orada bunga to'la ishonch hosil qildim, sirasi, sohib-u sohiba bir qop yong'oqdek shaldiragan bo'lib, bir-birini astoydil tushunar, hamisha sabr va shukurga suyanar edi. Ro'zg'orda bor-yo'qni tirnoqcha sezdirmay, sizlar ham manovilar qatorida farzandimiz bo'lasiz, deya tez-tez ruhimizni ko'tarishar va Xudodan hamirizga omad tilashar edi. Biz o'sha omad qushi hademay boshimizga qo'nishidan umidvor edik, bunga kamina kamtarin, ayniqsa, ko'proq ishonardim, faqat lallayib xayol surishlar pand berishi yetti uxlab tushimga kiribdimi?

Taqdimni qarang: hozirgi Amir Temur xiyobonini kezib yura-yura behisob

zahmatlar evaziga erishganim attestatni arzimasa parcha qog'oz kabi tushirib qo'yibman, o, o'sha lahzadagi holixarobimni ko'ring, bo'g'zimga pushaymon bilan qorishiq zahar-u zaqqum o'kirik tiqidilar.

Shunaqa, naqd yo'rgakda tekkan yaramagur anqovligim hatto butun boshli xazina kabi qimmatli, azizdan-aziz bir yilning tagiga suv quydi, eh-he, shu vaqt mobaynida ta'rifi yo'q tushunuksiz hasrat-u nadomat ummonida suzaverib telbandim, tinkayo madorim quridi (esini tanib ulgurmagun sho'rlik qalamim iztirob cheka-cheka yoqasini chok aylagandir), qachonki, o'sha shaldiroq qo'ng'iz nusxa avtobusda, tag'in cheksiz hayajon-u surur og'ushida entikkan ko'yi Toshkent quchog'iga kelib, ancha yuqori ko'rsatkich bilan nufuzli dorilfunun jurfakini zabt etgach, yelkamdan tog'

qulagandek yengillashdim, ha, endi Xudo ol qulim deb yuborib, omadim chopdi, faqat shu omad yonida boshqa anchagina jiddiy muammo tug'ildi, sirtqi bo'limga joylashganim, cho'ntak jonivor o'g'ri urgandek ship-shiydam bo'lgani sababli, tezroq andak-mandak ermak topishim lozim, bas, tamoqqa yamoq kerak.

G'ovlashdan bo'shamaydigan kalam yana beshbattar g'ovladi, qishloqdan yordam kutish qanchalik besamar bo'lsa, biron tahririyatga yukunib borish shunchalik befoya edi. Axir kecha qishloqdan suvga tushgan lattadek shalvirab kelgan, qo'liga tayinli kitob ushlamagan, so'zni so'zga tuzukli qovushtirishni bilmaydigan savdoyife'l juldirrovi qaysi gazeta yoki jurnal gazagiga dori bo'lsin...

Endi bu yog'i tavakkal: ko'p o'tmay attestatim yo'qolganida, kamina yonida unsiz yig'lagan, ne-ne teshig-u tuynukka birgalikda bosh urgan Mamatqul bilan yonma-yon qaysi bir qurilish-montaj tashkilotida arzimagan pul evaziga ter to'ka boshladim.

Bilasiz, holva degan bilan og'iz chuchimaydi, qishloqda suyagim mehnatda qotganiga qaramay, uch-to'rt oy orasida ona sutim naqd og'zimdan kelayozdi. Nimasini aytasiz, ertadan kechgacha – rosa sakkiz soat kun tig'ida bukilib, chumolidek g'imirlab, la'nati belkurak, lo'm va cho'kich bilan metindek qotib ketgan yap-yalang yerda telefon simi o'tkazishga mo'ljallangan ariqcha qazir edik, o, kafilarimiz shilinganlari, va qonaganlarini eslasam, bari qaytadan ro'y berayotgandek hozir ham dodlab yuboraman.

Asad DILMUROD

Sabrimiz kosasi lim-lim to'lib borar, lekin choy-chaqasiz qolishdan cho'chib, tishni-tishga bosar edik. Oxiri bir kun Mamatqul hozirgi O'ZAS tahririyatiga musahhah bo'lib ishga o'tdi-yu, darhol kamina paytavasiga ham qurt tushdi va bo'shah haqida shartta ariza yozdim. Bosh omon bo'lsa, do'ppi topilar. Devonavor dadilligim navbatdagi azob-u uqubatlar girdobiga ulqotirishi xayolimga ham kelmagan edi: poy-qadamimni o'sha vaqtda mamlakatga dong'i ketgan «O'zbekselmash» zavodidek gigant korxonani intizor kutayotgan ekan, dangali, akangiz qarag'ay bir dumaladi-da, savil qolgur quruvchilik choponi o'rniga, ishchilik korjomasini kiydi, ilgari tirishib qattiq yerni kavlasa, endi varillab ishlaydigan shift barobar stanokda odam sonidek yo'g'on-yo'g'on uch-to'rt metrli temir xodalar va quvurlarni kesadigan bo'ldi, yo tovba, taqdiri azal jonimni sinayotirmo yoki ermak qilayotir – bu tarafiga haligacha aqlim yetgan emas.

Karami keng Xudo qo'lladimi, iroda-bardoshim yoki dilimda uchqunlab turgan orzu-umidim quvvat berdimi, murakkab zavod hayoti, ish jarayonida kechadigan dovdirashlar-u qiynoqlar, boshliqlar zug'umiga asta-sekin ko'nika boshladim. Bo'sh paytlarda universitet va kutubxonaga qatnash osonligi sal bo'lsa ham dalda edi, hatto, ba'zan, allaqachon yelkamga chiqib ulgurman bahaybat qurilmani unutib, ul-bul narsa qoralab qo'yardim.

(Davomi bor)

BU KUNNI ORZIQUIB KUTDIK!

Maktablarda biror tadbir o'tkaziladigan bo'lsa, unga o'qituvchi-yu o'quvchilar barobar tayyorgarlik ko'rishadi. O'quvchilarning biri she'r yodlasa, ikkinchisi qo'shiq aytadi, boshqalari esa sahna ko'rinishini qoyilmaqom qilib ijro etadi. Ular orasidagi san'at ixlosmandlari esa kuy va qo'shiqlari bilan kechaga o'zgacha fayz bag'ishlaydilar. Orziqib kutilgan kun yetib kelganda, o'quvchilar quvonchiga sherik bo'lish naqadar zavqli ekanligini tadbirda ishtirok etgan kishigina his etadi.

Toshkent shahridagi 273-maktabning fidoyi o'qituvchilari-yu iqtidorli o'quvchilari «Til – ma'naviyat ko'zusi» deb nomlangan tadbirlariga «Tong yulduzi» gazetasi tahririyati xodimlarini ham taklif qilib, o'z shodliklarini birga baham ko'rishni niyat qilibdilar.

5-6-sinf o'quvchilari bilan to'lgan faollar zali tadbirga atab tayyorlangan devoriy gazetalari bilan bezatilgan. Maktab ilmiy mudiri Dilorom To'laganova kechani ochib berganlaridan so'ng, milliy liboslari o'zlariga yarashgan boshlovchilar sahnaga chiqdilar. Ifodali o'qilgan she'rlar, turli sahna ko'rinishlari-yu qizlar ijrosidagi raqslar, kuy va qo'shiqlardan o'quvchilar iqtidori, ona tilimizga bo'lgan yuksak e'tibori sezilib turardi. O'quvchilarning bilimlarini sinash maqsadida «Tong yulduzi» gazetasi Bosh muharriri ularga bir necha savollar bilan murojaat etdi. O'quvchilar savollarga bergan javoblari orqali bilimdonliklarini yana bir bora namoyon etdi. 7-«B» sinf o'quvchisi Ilhom Shokirov, 6-sinf o'quvchilari Abdulloh Hikmatov, Zamigor Safarova, Madina Abdusattorova, Zahira Ergasheva, Abdusolih Abdug'aniyev hozirjavobliklari uchun Bosh muharrir tomonidan sovg'alar bilan taqdirlandi.

5-«A» sinf qizlari Saida Abuqodirova sahnalashtirgan «O'g'il bola» raqsiga qoyilmaqom raqsqa tushib, 5-«V» sinfining atlas ko'ylakdagi qizlari «Pari» nomli qo'shiqqa xirom aylab, barchaning kayfiyatini ko'tardilar.

Maktabning ona tili va adabiyot fani muallimasi Zulxumor Qodirova:

– Zap o'r tadbir bo'ldi-da, – dedi mamnuniyat bilan, – o'quvchilarning bir umr yodida saqlanadi endi bu kun!

Haqiqatan ham, o'quvchilarning har tomonlama bilimdon va zukkoliklariga oz fursat ichida ishonch hosil qildik. Kechaning fayzli o'tishida «Notiqlik san'ati», «Yosh qalamkashlar», «Yosh muxbir», «Raqqosa qizlar» to'garagi rahbarlarining xizmatlari katta ekan. «Yosh muxbir» to'garagi rahbari Ma'fura Usmonova bizga to'garaklar haqida qisqacha ma'lumot berib o'tdi:

– Dilorom To'laganova, Dilfuza Abdullayeva, Zulxumor Qodirova kabi fidoyi ustozlar o'zlari boshchilik qilayotgan to'garaklarda o'quvchilar bilim va salohiyatini yanada oshirish uchun bor bilim va mahoratlarini ayamaydilar. Bunga javoban o'quvchilarimiz ham ustozlari saboqlarini oqlab, ko'plab yutuqlarga erishmoqda.

– Bu kunni orziqib kutdik, – deydi 6-«A» sinf o'quvchisi Zarnigor Safarova. O'zim ona tili va chet tili fanlariga qiziqqanim uchun har yili o'tkaziladigan til bayramiga o'zgacha tayyorlanaman. Ingliz tili fani o'qituvchimiz Manzura opa Mirhamidova «Til bilsangiz, kam bo'laysiz», deb ko'p bora ta'kidlaydilar. Shuning uchun ham hozirdan chet tillarini mukammal o'rganmoqdaman. Niyatim, ingliz tilini mukammal o'rganib, chet ellarga borishdir!

Bunday ezgu niyatlar bu maktabning har bir o'quvchisi ko'nglida borligiga shubha qilmaymiz. Negaki, o'z tilini shunchalar ardoqlayotgan bu o'quvchilar o'zga tillarning ham qadriga yetishlariga ishonamiz.



Gulyuz ORIFJONOVA



1

1. Quyidagi asarlar qaysi ijodkorlar qalamiga mansub?

1. «Navoiy»;
2. «Kecha va kunduz»;
3. «Zarbulmasal»;
4. «Gulshani roz»;
5. «Vafo malikasi».

2

Bu satrlarni qayerda o'qigansiz?

- *Kishi aybin yuziga qilma izhor.
- * Taammul ayla o'z aybingg'a zinhor.
- *Taammul – sabr, bardosh; o'ylab ish qilish, oxirini o'ylash.

3

«Mahmud Torobiy» asarini kim yozgan? Gazetamizni sinchiklab o'qigangiz, asar muallifining ism-sharifini qiyinalmay topasiz.

4

Bu so'zlar qaysi asarda, kim tomonidan aytilgan?
«O'g'lim, hali sen eshitdingmi, yo'qmi, haytovur biz saning ustingdan bir ish qilib qo'ydiq...»



Yaponiyalik mutaxassislar «tarjimon» ko'zoynak yaratishdi. NEC korporatsiyasi ishlab chiqargan bu ko'zoynak o'ziga o'rnatilgan maxsus mikrofon va kamera orqali xorijiy tildagi ma'ruzani yozib olish xususiyatiga ega. Matn tarjimasi ko'zoynak «ekrani»da paydo bo'ladi.



Misrlik to'qqiz yoshli bolakay arifmetik amallarni miyasida kompyuter tezligida bajara olarkan. Zukkolikda tengqurlaridan ancha o'zib ketgan Mahmud Vail hatto kattalarning aqli yetmaydigan matematik masalalarni hech bir qiyinchiliksiz yechishga qodir.



«YARAMAS» BOLA

Dam olish kuni qiziq voqea ro'y berdi. Peshinga yaqin o'g'lim o'qiydigan maktabda yaqinda ish boshlagan jiyanim Umida kirib keldi. Hammamiz bilan ko'rishgach, xolasiga yuzlandi.

– Yaramas o'g'lingiz qani?

Ochig'i, bu gapdan taxta bo'lib qotib qoldik. Xayol bir zunda qayoqlarga olib ketmadi deysiz? Murodjon o'g'lim 8-sinfda o'qiydi. Ayni o'spirinlik chog'i. Nahotki, biror xunuk ish qilib qo'rgan bo'lsa? Bunday qarasam, yonimda turgan onasining ahvoli menikidan battar, qo'llari qaldirab ketyapti. Yo'q, hartugul o'zini qo'lga oldi.

–Tinchlikmi? Murodjon jo'ja olib kelaman deb bozorga ketuvdi.

Er-xotin bir ahvolda turganimizni ko'rib, Umida sharaqlab kulib yubordi. Uning kulganini ko'rib, biz biroq yengil tortdik. U qiziq bir voqeani aytib bermoqchidek so'riga o'rtnashibrog o'tirib oldi.

–Kecha darsdan chiqib kelayotсам, hovlida kutubxonachi opa bilan uch-to'rtta ustozlar gaplashib turishgan ekan. Men ham ular bilan

biroz gurunlashib qoldim. Shu payt Murodjon bir gala o'rtoqlari bilan sinfidan chiqib keldi. Adabiyot o'qituvchisi Muazzam opa ular tomonga ishora qilib: «Anovi novcha, yaramas bola, toza qonimni ichyapti-da», dedi. Qarasam, bolalarning novchasi Murodjon. Yuragim «shuv» etib ketdi. Yaxshiyam qarindoshim ekanligini bilishmaydi.

Bolalar o'tib ketishgach, kutubxonachi opa hayron bo'lib so'radi:

– Nima, xulqi yomon bolami?

Muazzam opaning yuziga kulgi yoyildi.

– Yo'g'-e, tilla bola. Haftasiga bitta roman o'qiydi. Har dushanba o'qigan asari bo'yicha mendan fikr so'raydi. Men ham ko'p kitob o'qiyman. Ammo ba'zida u so'rgan asarini o'qimaganim bois o'quvchilar oldida xijolat tortgan paytlarim ham bo'ldi. Hozir bunyam yo'lini topdim. Hafta boshida undan qanday kitob o'qiyotgani haqida so'rab olaman. Men o'qimagan kitob bo'lsa, darrov topib, o'qib chiqaman. Shu kunlarda Aleksandr Dyumaning «Askani» degan romanini o'qiyotgan ekan. O'shani o'qib chiqay deb kecha qarindoshimning to'yida ham bemalol o'tirolmadim.

Bu gaplarga jilmaygan quloq solib o'tirgan kutubxonachi opa ham qiziq gap aytdi:

– Biz u yigitchani «Soat bola» deymiz!


Yozgi ta'tilda ham kunora kelib, yangi kitob olib ketardi. Eng qizig'i, «Xola, falon vaqtda

shu yerda bo'lasizmi?» deya so'raydi. Bir-ikki bor kech qolsam, xafa bo'ldi. O'zi esa aytgan vaqtiga soniyama-soniyasigacha to'g'rilab keladi...

Umida bu voqealarni zavq bilan so'zladi, biz esa maroq bilan tingladik. Jo'jalar solingan qog'oz qutini ko'targan «Yaramas» kirib kelganida, mavzuni o'zgartirdik. Unga bu haqda aytmaslikni lozim topdik.

Murodjonning maktabida mana shunaga gaplar! Siz ham ko'p kitob o'qib, ustozlaringiz aqlini shoshirib, ijobiy ma'noda «Yaramas» bola bo'lib yuring! Bu ish sizning ham qo'lingizdan keladi.

Yusuf ABDULLAYEV



BOSH MUHARRIR:
To'lqin HAYITOV

Dizaynerlar:
Fazliddin SHOYODGOROV,
Olovuddin OROPOV
Navbatchilar:
Axtamqul KARIM,
Yusuf ABDULLAYEV

Gazeta
O'zbekiston
Matbuot va
axborot
agentligida
0208-raqam
bilan 2007-yil
2-fevralda
ro'yxatdan
o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
Avaz MARAHIMOV,
Svetlana INOMOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Odina JAMOLDINOVA,
Jabbor RAZZOQOV,
Murtazo SULTONOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Feruza ADILOVA
(mas'ul kotib),
Dilmurod RAHMATILAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA

Manzilimiz:

Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Indeksi: 100129.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@bk.ru
www.tongyulduzi.uz
Tel: 244-27-25, 244-63-08

Tel./faks:

(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»

NMIU'da chop etildi.
Tahririyatga kelgan barcha
qo'lyozmalar tahrir qilinadi,
mualliflarga qaytarilmaydi.
Haftaning dushanba kuni
chiqadi. Shakli A-3,
2 bosma taqob.
ISSN 2010-6092
Adadi - 31867
Buyurtma N: J 364

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,

«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,

«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatiga

qarashli bo'lgan Xalqaro xayriya jam'armasi.